

HARBIY XIZMATCHILARNING MA'NAVIY XAVFSIZLIGINI HAMDA MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH MASALALARI

Shamshiyev Ravshan Rustam o‘g‘li

Chirchiq oliy tank qo‘mondonlik muhandislik bilim yurti
Qurollanish va otish kafedrasи o‘qituvchisi.

Annotatsiya:Dunyo mamlakatlarida xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm kabi xavf-xatarlar, milliy va global xavfsizlikka qarshi tahdidlar tobora ortib borayotgan bugungi kundagi murakkab davrda Qurolli Kuchlarimiz tizimida ham har bir harbiy xizmatchilarning professional bilim va malakasi, aqliy salohiyati, ruhiy tayyorgarligini oshirish, ularda vatanparvarlik fazilatlarini kamol toptirish ushbu tahdidlarni bartaraf etishda o‘ta muhim ahamiyatga egadir. Mazkur maqolada xavflarning oldini olishda harbiy xizmatchilarning mafkuraviy immunitetini takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar:Mafkuraviy kurash, tashqi va ichki tahdid, milliy va global xavfsizlikka.

KIRISH:Bugungi kunda insoniyat ongu-shuuriga hamda ma’naviyatiga salbiy ta’sir qilayotgan ichki va tashqi ma’naviy tahidlarga qarshi aholining turli qatlama vakillari, ayniqsa yoshlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish ishlarida psixologik omillarning o‘rnini va ahmiyatini chuquroq va ilmiy jihatdan tadqiqi qilinishi maqsadga muvofiqdir. Chunki insoning har qanday tahidilar ta’siriga og‘ishishida uning psixologikxususiyatlari, bilish jarayolari, irodaviy-emotsional holatlari, e’tiqodlari, manfaatlari, maqsadlari, extiyojlari, motivatsiyalari, ustanovkalari, yo‘nalganligi va ijtimoiylashuvi kabi psixologik mexanizmlarini bilishimiz mazkur masaladgi ma’naviy-mafkuraviy profilaktika ishlarini ijtimoiy-psixologik bashoratimizni osonlashtiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI:Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 27 yilligi va vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigida [1] “....Ayni vaqtida shaxsiy tarkib o‘rtasida milliy o‘zlikni anglash va jangovar ruhni, vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, harbiy xizmatchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirish ham doimo e’tiborimiz markazida bo‘lishi lozim. Shu maqsadda yosh askar va kursantlar uchun harbiy qasamyod qabul qilishdan avval “O‘zbekiston tarixi” fani va “Temur tuzuklari” kitobi bo‘yicha sinov o‘tkazish tartibini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.” -deya ta’kidlaganlar. Jamiyatimiz aholisi ayniqsa, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik va ma’naviy-ahloqiy tarbiyasini kuchaytirish, harbiy sohadagi qadriyat va an‘analarimizni targ‘ib etish, o‘zlarining na‘munali xizmatlari uchun askar va ofitserlarimizning zamon qahramonlari sifatidagi qiyofasini badiiy asarlar, spektakl va filmlar orqali keng yoritib berish borasida adib va shoirlarimiz, taniqli olimlar, ijodkor ziyyolilar, madaniyatnamoyandalari tomonidan samarali tarzda tashkil qilinmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL:O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 28 iyuldagи “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi 3160-sonli Qarorida keltirilganidek, dunyoda yuz berayotgan murakkab giosiyosiy va g‘oyavfiy-mafkuraviy jarayonlarning mazmum-mohiyatini har tomonlama chuqur yoritib berish, terrorizm, diniy ekstremizm, aqidaparastlik, separatizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, narkobiznes va boshqa tashqi tahidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish; jamiyatimizning barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan ichki tahidlar – el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e’tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga

qaratilgan kompleks tadbirlar tizimini ishlab chiqish va amalga oshirish; targ'ibot-tashviqot ishlarida aholining hududiy, kasbiy hamda yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda mutanosib, maqsadli va mazmunli yondashuvni joriy qilish ayniqsa muhim.

Shunday ekan, bunday vaziyatda biz fuqarolarimizga, ayniqsa yoshlарimizga turli yo'llar bilan kirib kelayotgan milliy manfaatlarimizga, xalqimizning ko'p asrlik ma'naviyati va milliy qadriyatları, diniy qarashlari va hayotiy udumlariga hamda hayot tarzimizga zid bo'lgan mafkuraviy tahdidlar, ma'naviy illatlar mohiyatini ochib berish va uning salbiy oqibatlaridan ogohlantirishimiz kerak.

Dunyoning mafkuraviy maydonida mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion kurashlar kuchayib borayotgan murakkab va tahlikali davrda insonlarning mafkuraviy immuniteti va ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini yangi bosqichga ko'tarish, ayniqsa yoshlарimizni turli mafkuraviy xurujlar va tahdidlardan himoya qilish, yurtdoshlarimizning hayotga ongli munosabatini shakllantirish, yon-atrofda yuz berayotgan voqealarga daxldorlik hissini oshirish, mamlakatimiz mustaqilligi, tinch-osoyishta hayotimizga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan tajovuzlarga qarshi izchil kurash olib borish vazifasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fuqarolarimiz, ayniqsa yoshlарimizni mafkuraviy xatarlarga qarshi samarali kurash olib borish ko'nikmasini shakllantirishda, ularda sog'lom dunyoqarash, jumladan, kitobxonlik ko'nikmasini shakllantirish, internet, axbot-kommunikatsiya texnologiyalaridan oqilona foydalanish madaniyatini oshirish, ularda g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish, mahallalarda uyushmagan yoshlar bilan ishlash, ushbu toifani ijtimoiy-iqtisodiy faollashtirishda jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikni sezilarli darajada yo'lg'a qo'yish, xalqimizning tarixiy merosi, urf-odatlari va milliy tarbiya an'analarini asrab- avaylash, keng aholi qatlamlari o'rtasida dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va o'zaro mehr-oqibat muhitini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofikdir.

Hozirda ko'plab sohalardagi ilmiy izlanishlarning natijalariga ko'ra ichki va tashqi tahdilarning ta'siriga asosan ko'plab yoshlарimizni chalinishi ham aynan ularning yosh bilan bog'liq psixologik o'ziga xos xususiyatlarining taqozosni deb aytish mumkin. Xududlarda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra aksariyat aholining turli qatlam vakillari ichki va tashqi tahdidlarni tanimaydi. Tahdidlarni tanimaslik yoki uning oqibatidan ogoh bo'lmaslik ularni aynan shu tahdidlarga og'ishishiga sabab bo'lishi mumkin.

Yoki odamlarni tahdidlarni tanimasligi, bilmaligi, aynan o'sha tahdidlarga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllanmaganligini ham izohlaydi.

Yoshlarda mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari O'zbekistonda yoshlarga oid olib borilayotgan davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki mafkura zaiflashgan joyda turli xil ma'naviy tahdidlar yoshlar ongini egallay boshlaydi. Bu esa yoshlar tarbiyasidagi ijobiy-psixologik ta'sirchanlikning bir muncha susayishiga olib keladi. Natijada yoshlardagi ilmga chanqoqlik, bunyodkorlik, Vatanparvarlikka bo'lgan intilishlar ildiziga bolta uriladi. Bunga esa hech qachon yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shu boisdan yoshlarda milliy g'oya orqali sharqona milliy xarakterni shakllantirish va shu asosda milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini singdirish, ularning psixologik

o‘ziga xos jihatlarini tadqiq qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Odamlarda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirishda psixologik omillarni inobatga olish milliy taraqqiyotning garovi hisoblangan ma’naviy muhitning barqarorlashuviga xizmat qilish bilan birga yoshlarda barqaror mafkuraviy immunitetni shakllantirish ishlarini jonlantirishga hissa qo‘sadi. Shu bilan birga mafkuraviy immunitet shakllanishining psixologik omillari aynan mazkur sohada faoliyat olib boruvchi psixologlar, pedagoglar, ma’naviyatchilar, “Ma’rifat” targ‘ibochilar, profilaktika nozirlariga murakkab kasbiy vazifalarini muvaffaqiyatlari va konstruktiv (ijobiyl) hal etsh imkonini beradigan ta’sirchan psxologik individual yondashuvini shakllantiradi.

Soha vakillari uchun mafkuraviy immunitet shakllantirishning psixologik omillarini bilish, mazkur ishlarda kompetentlikni oshiruvchi omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Shanxay hamkorlik tashkilotining 2017 yil 8-9 iyun kunlari Ostonada bo‘lib o‘tgan Sammimida so‘zga chiqib, tashkilotga a’zo mamlakatlar rahbarlarini o‘sib kelayotgan yosh avlod turli buzg‘unchi g‘oyalar va radikal guruhlarga qo‘silib ketishi oldini olishning aniq choralarini qo’llashga chaqirdi. “Asosiy e’tiborni”, dedi Prezidentimiz, “ma’rifatga, yoshlarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasiga qaratish, ularda bilim va o‘z ustida ishslashga intilishni shakllantirish muhim, deb hisoblaymiz” degan fikrlarni ilgari surdilar. Mazkur masalani dolzarbligini yana quydagi omillar bilan belgilash mumkin, jumladan: Hozirgi kunda jahon siyosatida “mafkuraviy kurash” tobora avj olib borayotgan bir davrda yoshlarda ayniqla o‘smlarda “mafkuraviy immunitet”ni shakllantirish yo’llari dolzarb masala sifatida qaralmoqda. Mafkuraviy immunitetning o‘ziga xos xususiyatlari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin. Birinchidan, insonning umumiyligi immunitet tizimi tug‘ma bo‘lsa, mafkuraviy immunitet shakllantirib boriladi (Bizningcha mafkuraviy bilim kognitiv xususiyatga ega bo‘lib shaxs har qanday g‘oyani taniy olishi, oquqoraga ajrata bilishi kerak, ya’ni shaxs voqelikdagi bilimlarni ijobiyl va salbiy jihatlarini bilishi, anglashi lozim bo‘ladi. Shunday ekan mafkuraviy immunitet shaxslarda hayot davomida ortiriladi va shakllantiriladi). Ikkinchidan, u har bir avlod uchun alohida xususiyatga ega bo‘ladi (Bizningcha avlodlar orasidagi milliy qadriyatlar tizimini kuchaytirishimiz, yangi avlodda har tomonlama barqaror mafkurani shakllanishiga olib keladi. Chunki shaxs o‘zini anglagan sari, avlodlari, shajarasi tarixi-yu ularning jahon sivilizatsiyasi uchun qilgan buyuk ishlarini bilgan sari ularda milliy iftihor, milliy g‘urur tuyg‘ulari shakllanib, ulardagagi mafkuraviy immunitet barqarorlashadi). Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlik ta’minlanadi (Bizningcha shaxsda mafkuraviy immunitet shakllansa, barqarorlashsa, u inson har qanday yot g‘oyani taniy oladi va unga qarshi o‘zining ma’naviyati va ma’rifati ilá javob qaytaradi).

Shunday qilib, “Mafkuraviy immunitet - ma’naviy barkamol, irodasi baquvvat, iyemoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiyon, buzg‘unchi xarakterdagi g‘oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan o‘smlarni tarbiyalashda qo‘l keladi” – deb ta’rif beriladi falsafiy qomusiy lug‘atida. Immunitet, o‘z navbatida odamni to‘g‘ri yo‘ldan “ozish”dan, turli yo‘llarga adashib, keyin pushaymon bo‘lishlardan, baxtsizlikdan, millatni esa parokandalikdan, parchalanishlardan, sinfiy yoki mahalliy bo‘linishlardan asrab qoladi. Demak, mafkuraviy immunitet – davlat va millatning ma’naviy xavfsizligi, ma’naviy sog‘lomligini himoya qiluvchi g‘oyaviy qalqon va ishonchli vosita vazifasini bajaradi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning “Bugungi kunda ijtimoiy-ma’naviy muhitni va aholi turmush sharoitini yaxshilash, yoshlarni turli diniy ekstremistik oqimlar ta’siridan asrash masalasi barchamiz uchun eng asosiy masala bo‘lib turibdi” – deb aytgan so‘zлari yoshlarni diniy ekstremizm va terrorizm balosidan ogohlantirishimiz, ularni bunday yot g‘oyalar ta’siriga tushib qolmasliklari va bunday baloni oldini olish uchun qanday tizimli ijtimoiy profilaktik amaliy ishlarni amalga oshirish kerakligini davlat va jamoat tashkilotlari oldiga bir qator aniq vazifalar qilib belgilab berdilar.

XULOSA VA MUNOZARA:Xulosa shuki, biz tatqiq qilayotgan ichki va tashqi tahdidlarning salbiy illatlari har doim ham yaqqol namoyon bo‘lavermaydi. Ammo mayda-chuyda ikir-chikirlar bo‘lib ko‘ringan masalalar kelajak avlod tarbiyasi va milliy ma’naviyatimiz xavfsizligiga chuqur salbiy ta’sir o’tkazishi mumkin. Bu borada asosiy e’tibor aholining turli qatlam vakllarini ichki va tashqi tahdidlardan xabardorlik darajalarini baholab borish, milliy urfodatlarimiz va milliy qadriyatlarni avaylab asrash hamda yosh avlodni ajdodlar namunasi asosida tarbiyalash asosida ularda mustahkam mafkuraviy immunitet shakllantirish bugungi kun haqiqatidir.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 27 yilligi va vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrige.
2. Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston yoshlari yo‘llagan bayram tabrige
3. www.uza.uz. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 15 iyun kuni “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minalash, muqaddas dinimizni soғligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so‘zlagan nutqidan.
4. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz T.: O‘zbekiston. 2016 14-b.
5. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. “O‘zbekiston” 2019.
6. Tashmetov T.X. Milliy g‘oyani yoshlar ongiga singdirishning zamonaviy usullari. 326- 331 b. 2020.
7. Tashmetov T.X. Yoshlarda Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ta’lim tarbiyaning o‘rni. ARES 2021 1046-1051 b.
8. Tuychiev B. va boshqalar Milliy g‘oya: O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi. O‘quv qo‘llanma. 2022
9. I.Ergashev va boshqalar. Milliy g‘oya va targ‘ibot texnologiyalari // - T. “Maashhurpres”. 2018